

## JARAYoN



## JARAYoN

Suv hayot manbai. Tumanimizda ayni kunda aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida barcha hududlarda amaliy ishlar bajarilmoqda.

Biroq ba'zi hududlarda tarmoqdagi yuzaga kelgan nosozliklar aholining haqli ravishdagi murojaatlariga sabab bo'layotir. Tuman markazidagi Rovon mahallasi "Amir Temur" ko'chasiga "Yangi avlod" firmasi tomonidan ichimlik suvi tarmog'i tortilgan.

Yotqizilgan quvurlardagi nosozlik tufayli bir muddat suv quvurlardan chiqib, aholining noroziligi va murojaatiga sabab bo'ldi.

Vaqtida ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli mazkur nosozlik "O'zsuvta'minot" So'x tumani bo'limi xodimlari tomonidan bartaraf etildi.

**So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

2022-04-15 16:43:06